



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 1-aprel, № 66 (8961)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'ZBEKISTON — TOJKISTON — QIRG'IZISTON: O'ZARO ISHONCH VA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINING MUHIM BOSQIHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 31-mart kuni amaliy tashrif bilan Xo'jand shahrida bo'ldi.



Xo'jand shahri aeroportida davlatimiz rahbarini Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon kutib oldi.

O'zbekiston rahbarining tashrifi sharafiga davlat bayroqlari ko'tarildi. Milliy kuy-cho'ng'ir va raqslar ijro etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev dastlab Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan uchrashuv o'tkazdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida ikki tomonlama do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik yuksak darajaga ko'tarilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

2024-yilda tovar ayirboshlash hajmi 700 million dollardan oshdi. Sanoat, energetika, elektrotexnika, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va boshqa ustuvor sohalarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmog'da. Samarali hududlararo aloqalar va faol madaniy-gumanitar almashinuv yo'lga qo'yilgan.

Hukumatlararo komissiyaning bo'lajak yig'ilishida amaliy hamkorlik bo'yicha ko'shma loyihalarni tezlantirish choralari ishlab chiqilishi muhim ekanini ta'kidlandi.

Yetakchilar mintaqaviy kun tartibi, shu jumladan, mamlakatimizda o'tkaziladigan ko'p tomonlama sammitlar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon huzurida tashqi siyosat idoralari rahbarlari O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning kuchga kirishi haqidagi bayonnomani imzoladilar va ratifikatsiya yoriqlarini almashdilar.

Shartnoma o'tgan yili 18-aprel kuni Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan oliy darajadagi ikki tomonlama sammitda imzolangan edi.

Hujjat ratifikatsiya yoriqlari almashilgan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xo'jand shahrida Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iz Respublikasi

Prezidenti Sadir Japarov bilan uch tomonlama uchrashuvda ishtirok etdi.

Uchrashuv avvalida davlat rahbarlari bir-birlarini muborak Ramazon hayiti hamda bahor, uyg'unlik va yangilanish ayyomi — Navro'z bilan quttadilar, birodir xalqlarimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

Prezidentimiz Tojikiston va Qirg'iziston tomonlarini barcha masalalar uzil-kesil hal etilgani hamda Davlat chegarasini delimitatsiya qilish to'g'risidagi shartnoma imzolanganini bilan samimiy tabrikladi.

Ushbu hujjat, shuningdek, uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risida imzolangan shartnoma barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashga, butun mintaqaning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Tantanali ravishda ochiladigan Do'stlik stelasini esa qardosh mamlakatlar o'rtasida mustahkamlab borayotgan yaxshi qo'shniçilik, ishonç va strategik sheriklik munosabatlarining yangi ramziga aylinishi qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlariga alohida to'xtalib o'tdi.

Eng avvalo, bu oliy darajadagi faol va ishonçhii aloqalarni davom ettirishdir. Shu hafta Samarqandda "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti va mintaqadagi umumiy ekologik tahdidlarga bag'ishlangan Iqlim forumi bo'lib o'tadi.

May oyida Ko'rfaz arab davlatlari bilan sammit, sentyabr oyida esa Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi o'tkaziladi.

Shu munosabat bilan bo'lajak tadbirlar kun tartibini puxta tayyorlash va umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun tashqi ishlar vazirliklari orqali muntazam maslahatlashuvlarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Chegaradosh hududlarning hamkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonning Qirg'iziston va Tojikiston bilan tovar ayirboshlash hajmi o'n karardan ziyodga oshgani qayd etildi. Bu hajmning deyarli yarmi chegaradosh hududlarga to'g'ri keladi.

Shu bois chegaralardagi bo'xona punktlarini kompleks modernizatsiya qilish va kengaytirish, qulay, zamonaviy savdo va logistika infratuzilmasini shakllantirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Uch tomonlama savdo maydonchasini tashkil etish, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining doimiy faoliyat ko'rsatadigan ko'rgazma-yarmarkasini yo'lga qo'yish masalasini o'rganish taklif etildi.

Yana bir yo'nalish — sanoat kooperatsiyasi loyihalari. Bugungi kunda O'zbekiston korxonlari va xususiy kompaniyalari qo'shni mamlakatlarda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga faol sarmoya kiritmog'da.

Kooperatsiyani qo'llab-quvvatlash maqsadida mamlakatimiz rahbari qo'shma investitsiya jamg'armalari kapitalini bosqichma-bosqich oshirishga tayyorligini bildirdi.

Mamlakatlar o'rtasida transport aloqalarini rivojlantirish borasidagi ishlarni davom ettirishga kelishib olindi. Bu aviaqatnovlar sonini ko'paytirish va geografiasini kengaytirish, chegaradosh hududlardagi shaharlar o'rtasida yangi avtobus yo'nalishlarini yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi.

"Yashil" energetika va transport sohasidagi yirik mintaqaviy loyihalar, suv va ekologiya dasturlarini ilgari surish diqqat markazida bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti hukumatlar iqtisodiy yo'nalishida yanada faol ishlash, xalqlarimiz farovonligini oshirishga qaratilgan tezkor, real natijalar berishi lozimligini alohida ta'kidlandi.

Shu kunlarda Xo'jand shahrida qator madaniy-gumanitar tadbirlar o'tkazilayotgani xalqlarimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qilayotgani alohida qayd etildi.

Davlatimiz rahbari har yili Navro'z bayrami kunlarida chegaradosh hududlarda qo'shma konsert va do'stlik festivallarini o'tkazishni taklif etib, kelgusi yilda bunday tadbirlarni Farg'ona shahrida tashkil etishga tayyorligini bildirdi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma imzolandi hamda uch davlat rahbarlarining Qo'shma deklaratsiyasi qabul qilindi.

Xo'jand shahrida o'tgan oliy darajadagi tadbirlar dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali

Rahmon va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov uch mamlakat davlat chegaralari tutashgan hududda Do'stlik stelasini tantanali ravishda ochdilar.

Uch mamlakat Bosh vazirlari o'rinbosarlari videoaloqa orqali davlat rahbarlariga qurilish ishlari yakunlangani va obyekt tayyorligi to'g'risida axborot berdi.

Ushbu yodgorlik qardosh mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik, ishonç va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlab borayotganining yangi ramzi bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida chegara masalalarining hal etilishi — hurmat, suverenitet, tenglik va o'zaro manfaat tamoyillariga asoslangan ko'p yillik mashaqqatli mehnat, samimiy muloqot va hamkorlik samarasidir. U uchta mamlakat xalqlari o'rtasidagi ishonç va do'stlik munosabatlarini mustahkamlashga, ularning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilgan holda, har tomonlama sheriklikni rivojlantirish uchun mutlaqo yangi istiqbolarni ochadi.

Ayni damda, shuni alohida qayd etish kerakki, bu jarayonda butun mintaqaning birlashuvi katta rol o'ynadi, bu esa mohiyatan, yuzaga kelayotgan muammolarni faqat muros va bir-birining manfaatlarini o'zaro hurmat qilish ruhida tartibga solish uchun asos yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning faol tashqi siyosati mintaqani yaqinlashtirish jarayonlariga muhim hissa qo'shdi. Prezident mamlakat rahbari lavozimiga kirishgan dastlabki kunlardan, Markaziy Osiyo mintaqasini O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab bergan.

Yaxshi qo'shniçilik va ishonçhii mustahkamlash, mavjud muammolarni tartibga solish, umummintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro maydonda faol hamkorlik qilish mintaqaviy siyosatning asosiy vazifalariga aйлandi.

Xo'jand shahrida o'tgan uch tomonlama sammit doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Bo'lib o'tgan uch tomonlama muzokaralar yakunlari, ularning asosiy natijasi sifatida

O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolanganini yuksak baholandi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishdagi yutuqlar mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi yil boshidan buyon 70 foizga oshdi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, shu jumladan, qo'shma investitsiya jamg'armasi ko'magida sanoat kooperatsiyasi muvaffaqiyatli rivojlanmog'da.

Energetika va transport kommunikatsiyalari sohasidagi yirik mintaqaviy loyihalarni, shu jumladan, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li qurilishini jadallashtirish masalalari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari hududlar o'rtasidagi faol aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish muhimligini qayd etdilar.

Prezidentlar bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini va kun tartibi yuzasidan ham fikr almashdilar.

Xo'jand shahridagi sammitning madaniy dasturi doirasida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat rahbarlari Xo'jand qal'asiga tashrif buyurib, uning tarixi bilan tanishdilar.

Bo'nyob majmuaning qurilishi miloddan avvalgi IV-V asrlarga borib taqaladi. Arxeologik qazilmalar natijasida o'sha davrda birinchi qal'a bunyod etilganligi aniqlangan.

1999-yilda qayta ta'mirlash ishlari davom etgan qal'a yonida 28 mingdan ortiq eksponatlar o'z ichiga olgan o'lakashunoslik muzeyi ochildi.

So'nggi restavratsiya ishlari jarayonida qal'a devorlari, arki va darvozalari qayta tiklandi, ma'muriy bino, hunarmandchilik do'konlari qurildi, Xo'jandning qadimiy hovlilari namunalari yaratildi.

Hududda tojik xalqi tarixi va madaniyatiga oid 5 ta ko'rgazma zalidan iborat majmua barpo etildi. 8 ta hovli va hunarmandlar xattotlik, rassomchilik, adras to'qish, so'zana tikish, tosh o'yimakorligi, temirchilik va kulochilik bilan shug'ullanmog'da.

Davlat rahbarlari uch mamlakatning hunarmandchiligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va milliy taomlari ko'rgazmasini ko'zdan kechirib, badiiy chiqishlarni tomosha qildilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi

Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov uch mamlakat madaniyat va san'at ustalarining konsertida qatnashdilar.

Davlatimiz rahbari o'z so'zida birodir xalqlarni bahoriy yangilanish bayrami Navro'z va muborak Ramazon hayiti bilan chin dildan qutladi.

Bugun xalqlarimiz uchun, haqiqatan ham, katta va uzoq kutilgan bayram. Biz uch davlat chegaralarining tutash nuqtasi haqidagi tarixiy shartnomani imzoladik. Bundan buyon chegaralar — birodarlik chiziqlari, yangi imkoniyatlar, bunyodkorlik va hamkorlik makonidir, — dedi Prezident.

Xalqlarimizning muqaddas tuprogi, dini, taqdiri bir, tashvishu quvonçlari, intilishlari o'xshash ekanini ta'kidlandi. Endi bu go'zal zaminni bugungi va kelajak avlodlar munosib va baxtli yashashi uchun birgalikda olib qilib yubirish burchimizdir.

Keyingi yillarda umumiy siyosiy iroda tufayli mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarda ulkan ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

Kuni kecha O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma kuchga kirdi. Yaqin kunlarda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida ham shunday hujjat imzolandi.

Savdo, investitsiyalar, yul tashish, fuqarolarning bordi-keldisi izchil ko'payib bormog'da. Muvaffaqiyatli kooperatsiya loyihalari soni oshmog'da.

Madaniy tadbirlar, ijodiy festivallar, yoshlar forumlari, sport musobaqalarini muntazam o'tkazib borishga alohida e'tibor qaratildi.

San'at chegara bilmaydi, uning buyuk vazifasi odamlarni birlashtirish. Uch mamlakatning iste'dodli san'at ustalari ijrosidagi bugungi konsert ham madaniyatlarimizning boyligi, rang-barangligi va mushtarakligini yana bir bor namoyish etdi. — dedi so'zining yakunida O'zbekiston Prezidenti.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Tojikiston Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

Aeroportda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon kuzatib qo'yd.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ma'buot xizmati suratlari.

## DOLZARB MASALALAR YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an 30-mart kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan Ramazon hayiti munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutladilar. Davlat rahbarlari qardosh xalqlarimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

O'zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Barcha darajalarda faol muloqotlar davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi, qo'shma loyiha

va korxonalar soni, to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar ko'paymog'da.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining bo'lajak navbatdagi yig'ilishi va Turkiya davlatlar tashkilotining rejadagi sammitiga tayyorgarlik ko'rishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda bo'lajak Hukumatlararo komissiya yig'ilishi

va qo'shma biznes forumini, shuningdek, Turkiya Buyuk millat majlisi delegatsiyasining Parlamentlararo Ittifoq assambleyasining 150-sessiyasida ishtirok etish uchun tashrifini samarali o'tkazish muhimligi qayd etildi.

Davlat rahbarlari xalqaro ahmiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

## KELISHUVLARNI AMALGA OSHIRISH LOZIMLIGI QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahob Sharif 30-mart kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan Ramazon hayiti — Iyd al-Fitr bayrami munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutladilar. Do'st O'zbekiston va Pokiston xalqlariga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklari izhor etildi.

Joriy yil fevral oyida Pokiston Bosh vazirining O'zbekistonga tarixiy tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni "Yo'l xaritasi"ga muvofiq amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Vazirliklar, idoralar va tarmoqlar darajasidagi muloqotlar faollashgani va

almashinuvlar samarali tus olgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Mart oyida Islombod shahrida O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari ko'rgazmasi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Aprel oyidan Lahorga qo'shimcha aviareyslar yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan.

Qo'shma loyihalarning ijrosini

ko'rib chiqish va ham jadalashtirish choralarini ko'rish uchun Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishini joriy yilda o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston va Pokiston yetakchilari mintaq kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O'ZA.

# MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI INTEGRATSIYASIDA YANGI DAVR



**2025-yil 31-mart. Markaziy Osiyodagi qardosh, yondosh, jondosh xalqlar uchun tom ma'noda tarixiy kun. Xo'jand shahrida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston Prezidentlari uch tomonlama uchrashuv o'tkazib, davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnomani imzoladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov uch mamlakat davlat chegaralari tutashgan hududda Do'stlik stelasini tantanali ravishda ochdi.**

**Bu tarixiy jarayonlarni mamlakatlarimiz aholisi katta quvonch va hayajon bilan kuzatdi. Azaldan bir daryodan suv ichib, ahil-inoq, do'stu qadrdon, o'zaro tayanch, suyanch bo'lib yashab kelgan xalqlar uchun bu voqealik tarix sahifalariga abadiy tinchlik-totuvlik timsoli o'laroq muhrlanadi.**

**Dunyo siyosatchilari, soha ekspert va mutaxassislari, oddiy insonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari hayotidagi bu yutuqlar bundan sakkiz yil oldin O'zbekiston rahbari tomonidan boshlangan do'stona va konstruktiv tashqi siyosat samarasi, qo'shni davlatlar bilan chegara muammolari va boshqa nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga qaratilgan intilishlar natijasi ekanini e'tirof etmoqda.**

## ADABIY ALOQALARIMIZ GULLAB-YASHAMOQDA

**Kanibek IMANALIYEV, Qirg'iziston Milliy yozuvchilar uyushmasi raisi:**

– Markaziy Osiyoda yangicha muhit shakllanmoqda. Qo'shni davlatlar o'rtasidagi munosabatlar yuqori pog'onaga ko'tarilmoqda. Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston Prezidentlari ishtirokidagi sammit ham uch qardosh xalqni yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Qardoshlik rishtalari haqida gap ketganda, o'tgan yili Parij Olimpiadasi yodimga keladi. Bizning bokschimizga murabbiylik qilgan o'zbek yigitining qanchalik kuyunishini, mehri balandligini ko'rib, ikki xalqning qondosh va jondosh ekaniga yana bir bor amin bo'ldik.

Yozuvchilar uyushmamiz haqida aytadigan bo'lsam, o'tgan yili biz uyushma tashkil etilganining 100-yilligini nishonladik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasidan ham mehmonlar qatnashdi. Qirg'izistonda o'zbek adabiyotiga e'tibor juda katta. Biz yaqin kunlarda Toshkentda Chingiz Aytmatov ijodiga

bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazamiz. Mashhur yozuvchimiz asarlarini sevim mutolaa qilmaydigan biror o'zbek kitobxonini topib bo'lmasa kerak. Chingiz Aytmatov Odil Yoqubov bilan qalin do'st edi. Bu do'stlik bugungi kunda ularning shogirdlari timsolida davom etmoqda. Toshkentga borganimizda bizni doim ochiq chehra bilan kutib olishadi. Qirg'iz yozuvchilari asarlari o'zbek tilida, o'zbek adiblariniki qirg'iz tilida nashr etiladi. Ya'ni bu hamkorlik adabiy aloqalarimizning yanada gullab-yashnashiga xizmat qilmoqda. O'zbekistondagi yangilanishlardan biz, adabiyot ahli juda xursandmiz. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Manas qishlog'ini obodonlashtirishga qo'shgan hissasi haqida kinofilm yaratmoqchimiz.

Yana shuni aytmochimanki, Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li qurilishi yakunlansa, jahon bozoriga yana bir yo'l ochiladi. Bu biz uchun qadimiy Buyuk Ipak yo'lining yangi davrini boshlab beradi.

## DO'STLIK BOG'IDA KO'KLAM SURURI

**Munavvar PARDAYEV, Sirdaryo viloyati tojik milliy madaniy markazi raisi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi:**

– Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti etib saylanganidan keyin Markaziy Osiyo integratsiyasi yo'lida dadil qadamlar tashlandi. Esimda, 2017-yilning bahori borliqqa bor sepini yo'yo'lagan bir pallada O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi sarhadlari o'rtasidagi ko'plab chegara bojxona o'tkazish punktlari ochilib, ikki qardosh xalqning azaliy do'stlik bog'ida ham ko'klam sururi kezgan edi.

O'shanda kamina Xovos tumanidagi ana shunday o'tkazish punktining qayta ochilish tantanasida qatnashib, bu quvonchli voqea ishtirokchilari ko'zidagi sevinch yoshlariga guvoh bo'lgandim. O'shanda tojikistonlik bir otaxonning sog'inchi to'la nigohi esa xotiramga umrbod muhrlanib qolgan. Nuroniy O'zbekistonga kelin bo'lgandim. O'shanda tojikistonlik bir otaxonning qizi hamda hali bir bor ko'rmagan nevaralari diydoriga o'sha kuni yetishgan edi... Shukrki, bugun bunday uzoq yillik sog'inchlar yo'q, negaki, ikki davlat o'rtasidagi bordi-keldi o'sha bahordan boshlab ravan va bemaol bo'lib qoldi. O'zaro hamkorligimiz kuchaydi. Ayni chog'da madaniy aloqalarimiz ham rivoj topmoqda.

Xususan, bundan bir necha yil avval biz, sirdaryolik ijodkorlar Xo'jandda, tojikistonlik jurnalist qardoshlarimizning kasb bayramida qatnashdik. Kasbdoshlarning ijodiy faoliyati bilan tanishdik, ko'hna va ko'rkam Xo'jandni tomshoqa qildik. O'z navbatida, So'g'd viloyati jurnalistlari ham Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunida Sirdaryoda mehmon bo'ldi. Bugun So'g'd viloyati ommaviy axborot vositalari, tojikistonlik jurnalistlar, yozuvchilar, shoirlar bilan ijodiy va o'zaro aloqalarimiz muntazamlik kasb etgan.

## QADRIYATLARINI QADRLAGAN XALQLAR

**Dilnoza TAPIVALDIYEVA, Qirg'izistonning O'zbekistondagi Savdo va turizm tarmog'i rahbari:**

– Ikki mamlakat yetakchilari olib borayotgan oqilona siyosat tufayli O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida keyingi yetti-sakkiz yilda savdo aloqalari izchil rivojlandi. Misol uchun, yaqinda bir guruh o'zbek tadbirkorlarining O'shga tashrif buyurib 30 dan ortiq qirg'iz ishbilamonlari bilan hamkorlik bo'yicha maslahatlashib olgani fikrimiz tasdiqi. Unda turli sohalar bo'yicha qator kelishuvlar imzolandi.

Birgina so'nggi uch yilda 500 dan ortiq tadbirkorlar o'zaro hamkorlikda ish olib borayotgani ikki davlat iqtisodiyoti rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilmoqda. Bu o'zaro savdo munosabatlarida barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilayapti. Qirg'iziston O'zbekistonning muhim savdo sheriklaridan biri bo'lib, o'zaro savdo hajmining o'sib borishida ikkala davlat o'rtasidagi transport-logistika va bojxona sohasida qulayliklar yaratilgani muhim omil bo'lmoqda.

Yaqinda O'zbekiston eksportchilari uyushmasi va ularning Qirg'izistondagi vakillari tarafidan ikki davlat tadbirkorlarining amaliy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ishbilamonlar tomonidan imzolangan kelishuvlar millatlararo do'stlik va qardoshlikka yana bir ko'priki bo'ladi, deb ishonch bilan ayta olamiz. Zero, ota-bobolarimiz Buyuk Ipak yo'li orqali savdo karvonlari bilan o'zaro bahamjihat faoliyat olib borgan. Bugungi sa'y-harakatlar ushbu azaliy aloqalarning mantiqiy davomidir. Qadriyatlarini qadrlagan xalqlar hech qachon kam bo'lmaydi.

## TARIXIY LAHZALARGA GUVOH BO'LAYOTGANIMDAN XURSANDMAN

**Sharifboy TURSUNOV, mehnat faxriysi, 85 yosh (Tojikiston):**

– Xo'jand shahrining o'rtasidan mintaqamizdagi yirik daryolardan biri – Sirdaryo oqib o'tadi. Bolaligimdan shu yerdalarda o'ynab katta bo'lganman. Qahatchilik, qiyinchilik yillarini ko'rdik. O'zbeklar, tojiklar bir tanu bir jon bo'lib yashadik, bir mayizni teng bo'lib yedik.

Aytmoqchimanki, xalq birlashsa, millatlar hamjihat bo'lsa, uni yengib bo'lmaydi. Buni biz o'z tajribamizda ko'rdik. Qiyin daamlarda bir-birimizga suyanch bo'ldik, bir-birimizni qo'llab-quvvatladik...

Bugun azaliy rishtalar yanada mustahkamlanmoqda. Davlatlarimiz rahbarlari bu borada barchaga namuna bo'lyapti. Mana shunday

dorilamon kunlarga yetkazganiga shukr.

Ayni kunlarda Xo'jand shahri – dunyo ahlining diqqat markazida. Bu yerda o'tgan nufuzli anjuman uning ko'hna va hamisha navqiron ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda. Shunday tarixiy lahzalarga guvoh bo'lish menga ham nasib etganidan benihoya xursandman.

## UMRBOD YODDA QOLADIGAN BAYRAM

**O'rinboy USMONOV, O'zbekiston va Tojikiston Yozuvchilar uyushmalari a'zosi:**

– Bayramda g'amdan gapirmaydilar, lekin qardosh xalqlarimizning yaqin o'timshda bir-birinikiga borish uchun chegaradan o'tishda chekkan azob-uqubatlar beixtiyor ko'z o'ngimga keladi. Chegaralarning har ikki tomonida ham qarindoshining to'yiga borolmay, dilda g'am bilan noiloq ortga qaytganlarni, eng yaqin kishisining janozasiga o'ta olmay, temir panjaralarga holsiz suyangancha alamli yosh to'kkan kishilarni eslayman.

Sakkiz yil muqaddam bunga chek qo'yildi, yopiq chegaralar

qaytadan ochildi. O'sha kunlardagi o'zbeklar va tojiklarning shodligini tasvirlash qiyin. O'shanda Patar – Andarxon chegara-o'tish maskaniga borganimda hammaning qo'li duoga ochilgan – ikki davlat rahbarlarini alqashardi. O'tgan davrda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi boshqa chegara-o'tish maskanlari ham ochildi, ikki mamlakatning qo'shma bozori qurilishi davom etmoqda.

Prezident Emomali Rahmon O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni "Markaziy Osiyoda do'stlik munosabatlarining me'mori", deb atagan bejiz emas. O'zbekiston rahbari nafaqat Tojikiston, balki

boshqa qo'shni mamlakatlar, xususan, Qirg'iziston bilan ham do'stona munosabatlarni tikladi, yopiq chegaralarni ochdi. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi do'stlik munosabatlarida o'tgan yili yana bir katta qadam qo'yildi. Ikki qo'shni mamlakat ittifoqchiga aylandi. Sakkiz yildan buyon O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy munosabatlar beqiyos darajada o'sdi, sayyohlik rivojlandi.

Ishonamanki, Xo'jandda o'tkazilgan uch davlat rahbarlarining oliy darajadagi tarixiy uchrashuvi o'zbek, tojik va qirg'iz xalqlarining abadiy do'stligini yana bir bor namoyon etadi.

## BESHARIQDA BAXT TOPGAN KONIBODOMLIK KELIN

**Safiyaxon NISHONOVA, Beshariq tumanidagi 13-umumta'lim maktabi direktori, xalq deputatlari Beshariq tumani Kengashi deputati:**

– Bobolarimning biri Beshariqda, ikkinchisi qo'shni Tojikistonning Konibodom tumanida qishloq xo'jaligida ancha dovrnuq taratgan insonlar edi. Ikkovlon do'stligi abadiy bo'lishi uchun quda-andalik rishtalarini bog'lab, onam Konibodomdan Beshariqqa kelin bo'lib tushgan.

Shu tariqa onam Enaxon Dehqonova Beshariqda ildiz otib, besh farzandni tarbiyaladi. Bir umr maktabda o'qituvchi, ustoz sifatida ishlab, el-yurt hurmatiga sazovor bo'ldi. Ikki yurt chegarasida joylashgan Andarxon, Sobirtepa va Beshkapa mahallalari ahli hamisha onamni "konibodomlik kelin..." deya erkalatishardi.

Aslida, chegaraning ikki tomonida joylashgan qishloqlar bir ariqdan suv ichib kelgan, mozori va bozori bir bo'lgan. Shu bois balandroq tepalikka chiqib chaqirsangiz, bir-birini eshitadigan ikki tuman odamlari azaldan qonu qardosh, quda-anda bo'lib yashagan.

Ammo shunday paytlar bo'ldiki, masofa yaqin, lekin manzil uzoq edi. Hayotimiz sog'inchga aylanib, yillar davomida diydorlashuvdan benasib yashadik. To'y yoki azaga borishga rasmiy idoralardan turli hujjatlar tayyorlagach bitta o'laddan bir yoki ikki kishiga, shunda ham o'ta qisqa vaqtga ruxsat berilardi. Shu sababli, chegaraning ortida ota-onasi, farzandi va boshqa yaqinlarining to'yiga, ma'rakasiga borolmay uvvos solib yig'lagan insonlarni juda ko'p ko'rganman.

Biz ham uzoq yillar Konibodomdagi xolarim, ikki tog'amni ko'rolmay, dardimizni ichimizga yutib yashadik. Endilikda vaziyat butunlay o'zgarib, istalgan vaqtda chegaradan belgilangan qonuniy tartibda hech bir qiyinchiliksiz o'tishimiz mumkin. Bugun u kunlar tushga aylandi. Chunki bayram tantanalari, oilaviy marosimlar endi bir-birimizsiz o'tmaydi. Beshariq tumanining "Andarxon" chegara maskanida zamonaviy savdo majmuasi bunyod etilayotgani esa tadbirkorlik, savdo-sotiq sohasidagi aloqalarni ham yanada mustahkamlash imkonini beradi.

## O'ZANI BIR DARYOLAR

**Yorqinoy HOTAMOVA, Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyati drama teatri aktyori, O'zbekiston xalq artisti, Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan artist:**

– Ta'bir joiz bo'lsa, qardosh xalqlar ijod bulog'idan suv ichib katta bo'lgan san'atkorman. Boisi aktyorlik faoliyatim davomida 10 yil Qirg'izistonning O'sh davlat drama teatrida ishlab, Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoniga sazovor bo'ldim. Keyin bir muddat Tojikiston xalq artisti Jo'rabek Murodov bilan ijodiy

hamkorlikda faoliyat olib bordik. Shu sababli, o'zbekchadan tashqari qirg'iz, tojik va qozoq tilida ham bemaol kuylay olaman.

Afsuski, uzoq yillar davomida chegara bilan bog'liq muammolar tufayli qardoshlik munosabatlari, ijodiy hamkorligimizga putur yetdi. O'zaro ijodiy tajriba almashish to'xtab qoldi, bayram tantanalari, to'y-ma'rakalarga borish qiyinlashdi. Bu esa o'nyillar mobaynida qardorlik va qardoshlik rishtalari uzilishiga sabab bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan obrazli aytganda, go'yo

ko'lmak suvdek bir joyda to'planib qolgan ulkan daryolar bugun yana sollarib bir o'zanga qo'shilmoqda. Keyingi yillarda Qirg'iziston, Tojikiston teatrlariga ijodiy safarlar uyushtiryapmiz. O'z navbatida, qardoshlarimiz ham yangi sahna asarlari orqali o'zbek tomoshabinlarini mamnun etyapti. O'tgan yili O'sh teatrida Said Ahmadning "Ufu" asari asosida sahna ko'rinishi namoyish etgan bo'lsak, joriy yilning yozida Xo'jand teatriga gastrolga borishni rejalashtirganmiz. Bunday tadbirlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik ko'laminani yanada kengaytirish hamda qardoshlik rishtalarini bundan-da mustahkamlashga hissa qo'shadi.

## UZOQ KUTILGAN HAYAJONLI DAMLAR

**Dilbar SAMADOVA, Bobojon G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti kutubxonasi direktori, filologiya fanlari nomzodi (Tojikiston):**

– Bu hayajonli damlarni biz ancha yillardan buyon kutayotgan edik. Esimda, bundan 15 yil oldin O'zbekistonga sovcilikka borish uchun viza olishga to'g'ri kelgan. Juda qiyinlashgan, u yodqagi qarindoshlarimiz bizni ko'rib, to'g'risi, yig'lagan. Chunki qarindosh-urug'lar ham bir-birini ko'rishga borolmay qolgan edi-da.

Bugun bunday muammolar yo'q – Tojikiston bilan O'zbekiston hukumatlari chegaradan o'tish tartibini, shuningdek, qo'shni mamlakatda bo'lib turish shartlarini ancha yengillashtirgan. Ikki xalq, tojik va o'zbek oilalari qarindoshlik hamda madaniy aloqalarni mustahkamlamoqda.

O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyoda davlatlar o'rtasida ochiq va do'stona hamkorlik davrini boshlab berdi. Bu tashniga sazovor. O'zaro munosabatlardagi "muzlar eridi", muammolar hal bo'lmoqda. Siyosiy iroda va o'zaro yon berishlar asosida chegaralarni delimitatsiya qilish masalasi to'liq hal etilmoqda. Bularning hammasi davlatlararo aloqalar yangi bosqichga chiqqanidan dalolat beradi.

## MADANIYAT BIZNI YANADA JIPLASHTIRADI

**A'zamjon ABDURAZZOQOV, Bobur nomidagi O'sh davlat akademik musiqali drama teatri direktori (Qirg'iziston):**

– Qirg'izlarda "Baxt asosi birligidir", degan ajoyib maqol bor. Uni eshitganimda ko'z o'ngimga bir-birining urf-odatlari, marosimlari, qadriyatlarini hurmat qiladigan o'zbek va qirg'iz xalqlari keladi. Qardosh ellarning azaliy do'stligi bugun chin ma'noda o'zini namoyon etayotganini ko'rib turibmiz. Hamkorlik va do'stlik mevalaridan biri – 2021-yilda O'zbekiston yordami bilan O'sh davlat akademik musiqali drama teatri binosining ta'mirlanib, ko'rkam va go'zal koshonaga aylantirilgani bo'ldi. Bu ko'mak xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Do'stona aloqalar tufayli ikki xalq o'rtasidagi qardoshlik rishtalari tobora mustahkamlanib bormoqda. Madaniyat sohasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Masalan, 2024-yilda Toshkentda Qirg'iziston madaniyat kunlari bo'lib o'tgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Teatrimiz O'zbekistonga gastrol safarlariga tez-tez borib turadi. Yaqinda O'shda Andijon teatri artistlari spektakli namoyish etishdi. Biz ham Andijonga borib maqom konsertini o'tkazdik. Xalqaro festivalda muvaffaqiyatli qatnashdik.

Maqsadimiz – azaliy qardoshlik rishtalarini madaniyat, san'at va teatr orqali yanada rivojlantirishga hissa qo'shish. Zero, madaniyat xalqlarni birlashtiradi.

"Xalq so'zi".

## «DO'STU QARDOSHDIR AZALDAN O'ZBEGIM TOJIK BILAN...»

Qariyb to'rt yildirki, O'zbekistonda Tojikiston Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi sifatida faoliyat olib boryapman. Bu davrda do'stlik, iliqlik munosabatlari va hamkorlik izchil rivojlanayotganidan xursandman. Oxirgi yillarda o'zbek va tojik xalqlari munosabatlarida ulkan muvaffaqiyatlar kuzatildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylarining 2018-yil mart oyida Dushanbega qilgan davlat tashrifida Tojikiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Emomali Rahmon bilan uchrashuvi chog'ida ikki davlat o'rtasidagi barcha mavjud muammolar bartaraf qilindi va yangi hamkorlik yo'llari ochildi. Tojik va o'zbek xalqlari o'rtasidagi ko'p asrlik yaqin do'stlik munosabatlari butunlay yangi bosqichga chiqdi.

### Hamkorlik

O'sha davrdan bugungi kunga qadar ikki tomonlama hamkorlikda ko'p o'zgarishlar kuzatilmog'ida. To'rt yuzdan ko'proq hukumatlararo va davlatlararo kelishuvlar, muassasa va korxonalar o'rtasida 500 dan ortiq shartnomalar imzolandi. Iqtisodiy, savdo, madaniy va gumanitar, qisqacha aytganda, barcha sohada hamkorlik rivojlanmoqda.

Keyingi yillarda ikki mamlakat vazirliklari va idoralari o'rtasida keng qamrovli aloqalar yo'lga qo'yildi. Bir nechta iqtisodiy va savdo yo'nalishlarida yuksak maqomdagi forumlar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'tgan yili Tojikistonga qilgan davlat tashrifida hamdo'stlik o'ng'itish va savdo ko'rgazmasi shuni ko'rsatdiki, o'zaro hamkorlik izchil kengaymoqda. Ushbu tashrif doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi tarixiy shartnomani imzoladi.

Ikki davlat rahbarlarining oqilona siyosatlarini tufayli qo'shma korxonalar ochilmoqda. Bugungi kunda Tojikistonda juda katta sanoat korxonalar O'zbekiston tadbirkorlari sarfmasi bilan bunyod etilmoqda. Shuningdek, Tojikiston tadbirkorlari O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga o'z hissaralarini qo'shmoqda. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi izchil iqtisodiy hamkorlik samarasidir.

Shuningdek, har yili O'zbekistonning turli viloyatlari markazlarida o'tkaziladigan ko'rgazmalarda Tojikiston tadbirkorlari faol qatnashmoqda. Mamnuniyat bilan aytish mumkinki, Farg'ona, Namangan, Andijon, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari va Tojikistonning So'g'd viloyati o'rtasida memorandumlar imzolangan bo'lib, ular orqali do'stona aloqalar yanada mustahkamlanmoqda. Joriy yilda So'g'd viloyati hukumati Namangan va Toshkent viloyatlarida faoliyat yuritayotgan muassasa va tashkilotlarga tashrif buyurdi, ushbu hududlardagi serhosil bog'lar bilan tanishdi.

Qishloq xo'jaligi yo'nalishida ham hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Bunga O'zbekiston va Tojikiston Qishloq xo'jaligi vazirliklari sa'y-harakati bilan Hisor shahrida 20 gektarda "Do'stlik bog'i" barpo etilayotgani ham yaqqol misoldir. Ushbu boqqa ekilgan ko'chatlarning katta qismi O'zbekistondan olib berildi. Shuningdek, ikki davlat dehqonlari tajriba almashishi uchun So'g'd viloyatida ilmiy-amaliy markaz bunyod etilgan va 130 gektarda O'zbekiston olimlari tomonidan yetishtirilgan yuqori sifatli bug'doy navlari ekilgan. O'laymanki, bu ishlar yaxshi samara beradi.

Xatlon va Surxondaryo viloyatlari o'rtasida ham juda yaxshi hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Surxondaryoning ko'p tumanlari Xatlon viloyati bilan memorandum imzolagan va shu asosda qo'shma korxonalar ta'sis etilmoqda. Yaqinda Dushanbe shahrida xalqaro zargarlik forumi o'tkazildi. Ushbu tadbir O'zbekistondan ham ko'p zargarlar o'z mehnatlarini mahsulini namoyish etdi. Mamlakatlarimiz tashabbusi bilan Zarafshon daryosida ikkita gidroelektr stansiyasi bunyod etish ko'zda tutilgan. Bu yerdagi loyihalarning ijrosini Tojikiston va O'zbekiston Energetika vazirliklari nazoratga oladi.

Transport yo'nalishida ham hamkorlik jadal davom etmoqda. Tovarlar uchunchi va to'rtinchi davlatlarga O'zbekiston va Tojikiston orqali o'tirib o'tirilayotgan ko'p miqdordagi o'zbekistonliklar o'tkazilmoqda. Bu ham, albatta, ikki davlat rahbarlarining do'stona siyosati hamda xalqlarimizning mustahkam aloqalaridan darak beradi.

Madaniyat, adabiyot va gumanitar yo'nalishlarda ham aloqalarimiz tezda o'z bo'y-bastini ko'rsatdi. Elchixonalar tashabbusi va tegishli vazirliklar qo'llab-quvvatlashi tufayli Tojikiston va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlarining



forumi Dushanbe va Toshkent shaharlarida o'tkazildi. Ushbu nufuzli anjumanlarda hamkorlik memorandumlari va shartnomalar imzolandi. Madaniyat yo'nalishida ham ko'plab muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirildi. O'zbekistonning to'rt nafar san'atkori "Tojikiston xalq artisti", yana bir nafari "Tojikiston xalq artisti" unvoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, Tojikistonning olti nafar san'atkori "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi.

Bu ilm va madaniyat vakillari o'rtasida katta yutuq hisoblanadi hamda o'zaro hamkorlik yo'lidagi ulkan muvaffaqiyat hamdir. Ikki mamlakat Yozuvchilar uyushmalari hamda Jurnalistlar uyushmalari o'rtasida ham memorandumlar imzolangan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi bo'lgan olti nafar tojik adibi Tojikiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga va tojikistonlik besh nafar o'zbek adibi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi.

Tojikiston va O'zbekiston rassomlari ham samarali hamkorlikni boshladi. Tojikistonning O'zbekistondagi elchixonasi tashabbusi bilan Toshkent va Samarqand shaharlarida tojikistonlik rassomlar asarlarining uch marotaba ko'rgazmasi tashkil etildi. Aniq va texnik fanlar yo'nalishida ilmiy daraja olish uchun mutaxassislar O'zbekistonning ilmiy kengashlariga hujjat topshirib, o'z tadqiqotlarini himoya qilyapti. Ularga O'zbekiston olimlari yaxshi sharoit yaratib berishayotgani e'tirofga loyiq.

O'zbekiston va Tojikiston chegarasidagi mavjud 17 ta o'tkazish punkti orqali har kuni yuzlab tojikistonliklar va o'zbekistonliklar bir-birlarining diyorlariga sayohatga bormoqda. Ta'kidlash lozimki, o'tgan yili Tojikistonning 1 million 200 dan ko'proq fuqarolari O'zbekistonga tashrif buyurdi. O'zbekistonning 800 mingdan ortiq fuqarolari mehmon sifatida Tojikistonda bo'ldi. Bu chegaralarimizda ham do'stona muhit barqaror ekanidan dalolat.

Kecha O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xo'jand shahriga tashrif buyurdi. O'zbekiston Prezidentining ushbu tashrif ham juda muhim bo'lib, u Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirishda alohida o'rinni tutadi. Ishonchimiz komilki, Xo'jandda o'tkazilgan uch tomonlama muloqot qo'shni davlatlar – Tojikiston, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi aloqalari yanada mustahkamlaydi. Shu nuqtayi nazaridan, biz mazkur tarixiy tadbir Tojikistonda bo'lib o'tganidan faxrlanamiz. Bu muhim voqea Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi do'stlikni yanada kuchaytirishga, tojik, qirg'iz, o'zbek xalqlarini yanada jipslashtirishga ishonamiz.

So'zimizning oxirida aytmoqchimaniki, tojik va o'zbek xalqlarining azaliy do'stligi bardavom bo'lsin. Chunki bizning shoirlarimiz, adiblarimiz buni ko'p ta'kidlashgan. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yozganidek,

**Do'stu qardoshdir azaldan O'zbe'gim tojik bilan, Ikki bir bayt g'azaldan O'zbe'gim tojik bilan.**

Shu o'rinda katta ehtirom va mehru muhabbat bilan qadrlil O'zbekiston xalqini Navro'zi o'lam va Ramazon hayiti bilan chin ko'ngildan samimiy tabriklayman. O'zbekistonda yashayotgan barcha xalqlar va millatlarga sihat-salomatlik, uzoq umr va abadiy do'stlik tilayman.

**Abdugabbar RAHMONZODA,**  
Tojikiston Respublikasining  
O'zbekiston Respublikasidagi  
Favqulodda va muxtor  
elchisi.



Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi a'zosi, Xalqaro aloqalar bo'limi mudiri Lyu Szyanchao boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazdi.

Shubhat davomida ikki mamlakat rahbarlarining o'zaro ishonch hamda do'stona munosabatlari tufayli O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlik strategik darajaga ko'tarilgani alohida ta'kidlandi. Investitsiya, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ta'lim sohasidagi loyihalar muhokama qilindi. Ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi hamkorlikni

chuqurlashtirishga e'tibor qaratildi. Shuningdek, tomonlar strategik sheriklikni yanada rivojlantirish va parlamentlararo aloqalarni kuchaytirish masalalarini ham muhokama qilishdi. Ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashning asosiy mexanizmi sifatida parlamentlar o'rtasida o'zaro hamkorlik muhimligi ta'kidlandi.

## ISLOHOTLAR MAHALLADAN BOSHLANADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva aholi bilan bevosita muloqot qilish maqsadida poytaxtimizning Olmazor tumanida bo'ldi.

Senat Raisi tumandagi Oltinsoy mahallasining "Nuroniylar maskani" majmuasida "mahalla yetilligi" tizimi faoliyati bilan tanishdi.

Bugun yuritimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot, avvalo, mahalladan boshlanishi hamda aholi

farovonligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy-ijtimoiy dasturlar ushbu tuzilma tizimida joriy etilishi yo'lga qo'yilgan.

T. Norboyeva faollar bilan shubhat jarayonida quyi bo'g'ida "mahalla yetilligi" hamda mahalliy Kengash

### Senator va hayot

## FARZANDLAR SALOMATLIGI – E'TIBOR MARKAZIDA

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi tomonidan bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifati bo'yicha parlament nazorati olib borilmoqda. Uning doirasida qo'mita raisi o'rinbosari O. Ataniyazova boshchiligidagi ishchi guruh Namangan viloyatida o'rganishlar o'tkazdi.

Sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish masalalari umumiy qadriyatlarimizning asosini tashkil qiladi. Zero, xalqimiz mustahkam oila barpo etish, o'g'il-qizlarini har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, ularning baxtdan quvonishdek egzu fazilatlariga suyanadi. Azal-azaldan bolalarga e'tibor birinchi galdagi vazifalardan sanaladi.

Ma'lumki, mamlakatimizda bolalar sog'lig'ini himoya qilish, diagnostika

va davolash tizimini takomillashtirish, xususan, telemeditsina va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda 12,9 milliondan ortiq bolalarga 824 ta oilaviy shifokorlik punkti, 984 ta poliklinika va 233 ta bolalar davolash muassasasi tibbiy xizmat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, respublikada 4247 o'rindan iborat 13 ta hududiy bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi tashkil etilgan.

O'rganishlar davomida hududlardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari,

Poytaxtimizda bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi doirasidagi ikki tomonlama amaliy muloqotning istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

O'z navbatida, Lyu Szyanchao erishilayotgan muvaffaqiyatlarni yuqori baholab, Xitoy tomoni O'zbekiston bilan barcha sohada, jumladan, iqtisodiyot, madaniyat, turizm va ta'lim sohasida faol hamkorlikni davom ettirishga tayyorligini bildirdi.

Muloqot yakunida tomonlar ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash, shuningdek, umumiy strategik maqsadlarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadigan parlamentlararo aloqalarni chuqurlashtirish borasida kelishib oldi.

deputatlari hamkorligi uchun qilinishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan tavsiyalar berdi.

An'anaga muvofiq, Hayit ayyomi arafasida tumanning ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalari holidan xabar olindi. Shuningdek, nuroniylar va yoshlar ishtirokida milliy qadriyatlarimizdan hisoblangan sumalak sayli tashkil etildi.

"Xalq so'zi".

### Qonunchilik palatasida



## BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING MUQOBIL CHORA-TADBIRLARI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi hamda BMT Bolalar jamg'armasi (YUNISEF)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida seminar o'tkazildi. Unda mamlakatimizda voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning muqobil chora-tadbirlari muhokama etildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bola huquqlari kafolatlarini mustahkamlash bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmeni) instituti ta'sis etildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlatning majburiyati ekanini alohida belgilab qo'yildi.

Seminar YUNISEFning bolalar uchun adolat bo'yicha xalqaro eksperti, BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasining sobiq raisi Renata Vinter bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha xalqaro amaliyot haqida ma'lumotlar berib o'tdi.

Mamlakatimizda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi talablarini bajarish borasida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilayotgani, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi doirasida ham bolalar huquqlarini himoya qilish hamda rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya qoidalariga asosan, O'zbekiston Respublikasi BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasiga mazkur Konvensiyaning bajarilishi to'g'risida doimiy ravishda hisobotlar ham taqdim etib borayotgani aytilib o'tildi.

Ushbu seminar bolalarga o'z vaqtida va yetarli huquqiy yordam ko'rsatishni ta'minlash masalalari bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish borasida, idoralararo hamkorlikni yanada mustahkamlash, bu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishda o'zaro fikr almashish uchun muhim maydon bo'lib xizmat qilishi qayd etildi.

Shuningdek, bolalar huquqlari himoyasiga oid qonunchilikni takomillashtirish, qonunlarning ijrosini nazoratga olish, bu boradagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha fikr-mulohazalar bildirildi.

Tadbir bolaning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berilib, bu boradagi qonunchilikni muntazam ravishda xalqaro hujjatlar bilan uyg'unlashtirish borish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish yuzasidan amaliy hamkorlikni rivojlantirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

### Xalqaro anjuman oldidan

## JAHON PARLAMENTARIZMI RIVOJI YO'LIDA

Bugun kunda Parlamentlararo Ittifoq – dunyoda shu yo'nalishdagi eng yirik va nufuzli tashkilot sifatida global siyosiy jarayonlarda muhim o'rin egallab kelmoqda. 1889-yilda asos solingan ushbu tuzilmaga ayni paytda 181 ta milliy va 15 ta mintaqaviy parlament a'zo bo'lib kirgan.

Bu tashkilot nafaqat parlamentlar o'rtasida muloqot va hamkorlik uchun samarali maydon, balki inson huquqlari, gender tenglik, iqlim o'zgarishi, yoshlar masalalari kabi global muammolarga vakillik organlari orqali yechim topishga qaratilgan muhim siyosiy platforma hamdir. BMT bilan uzviy hamkorlik qiluvchi mazkur tashkilot faoliyati dunyo parlamentlarini umumiy qadriyatlar atrofida jipslashtirishga qaratilgan.

Shu nuqtayi nazaridan, Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi Toshkent shahrida o'tkazilayotgani O'zbekistonning xalqaro siyosiy maydondagi mavqei yanada mustahkamlashga xizmat qilishi, shubhasiz. Bu – mamlakatimizning xalqaro siyosiy xaritada o'z o'rnini, global jarayonlardagi maqomi tobora yuksalayotganining amaliy tasdiqi.

Nufuzli tashkilotning yubiley assambleyasini Toshkentda o'tkazish – sharaf bilan birga mas'uliyat hamdir. Bugungi kunga kelib, 107 davlatdan 1100 dan ortiq delegatlar, 46 ta parlament spikerlari va 63 ta xalqaro tashkilot vakillari ushbu tadbirda ishtirok etishini tasdiqlagan. Prezidentimizning maxsus qarori asosida tashkilotchilik ishlariga barcha mas'ul idoralar, parlament, hukumat va jamoat tashkilotlari jalb etildi. Xavfsizlik, infratuzilma, axborot siyosati, madaniy dasturlar va targ'ibot faoliyati xalqaro standartlarga muvofiq yo'lga qo'yildi.

Bunday keng ko'lamdagi tadbir ilk bor yuritimizda o'tkazilmoqda va u yangi O'zbekiston islohotlari xalqaro maydonda yetarlicha e'tirof etilayotganining yorqin dalilidir.

Assambleyaning bu yilgi mavzusi – "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" deb belgilandi. Mazkur mavzu parlamentlar endi faqat qonun qabul qiluvchi emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi – kambag'allikni qisqartirish, teng imkoniyatlar

yaratish, inson qadrini ulug'lashda tashabbuskor siyosiy subyektlar sifatida qaratilishi kerakligini anglatadi. Bu mavzudagi muhokamalar dunyo parlamentlari o'rtasida o'zaro tushunish va umumiy yechimlar ishlab chiqish imkoniyatini kengaytirishi muqarrar. Assambleyada ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, ayollar va yoshlar imkoniyatlarini kengaytirishga oid masalalar atroficha muhokama etildi.

Assambleya kun tartibi tinchlik va xavfsizlik, inson huquqlari, iqlim o'zgarishi, yoshlar va ayollar faolligi, qurolli mojarolar ta'siri, BMT bilan hamkorlik kabi dolzarb yo'nalishlarni qamrab oladi. Asosiy sessiyada ijtimoiy taraqqiyot va adolat mavzuida umumiy siyosiy muhokama o'tkaziladi. Shuningdek, IPU qo'mitalarining hisobotlari, rezolyutsiya loyihalari muhokamasi va qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Xususan, Falastindagi vaziyat bo'yicha maqbul yechimni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosiy bayonot va tinchlik tashabbuslari muhokama markazida bo'ladi. Yoshlar forumi, ayol deputatlar uchrashuvi, sun'iy intellekt, bolalar huquqlari va iqlim masalalari bo'yicha alohida tadbirlar ham o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi nafaqat jahon parlamentarizmi rivojida muhim bosqich, balki inson qadrini ustuvor qo'yadigan yangi siyosiy yo'nalishning boshlanishi hamdir. Assambleyada qabul qilinadigan hujjatlar – deklaratsiya va rezolyutsiyalar XXI asrdagi parlament faoliyati uchun amaliy "Yo'l xaritasi" bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston ushbu global siyosiy jarayonlarda faol ovoz sifatida emas, balki yangi ovoz yaratuvchi mamlakat sifatida o'zini namoyon qilayotir. Toshkent esa dunyo parlamentlari uchun yangi muloqot markaziga aylanmoqda.

**Eldor TULYAKOV,**  
"Taraqqiyot strategiyasi" markazi  
ijrochi direktori.

### Plassambleyasi:

## KENGAYOTGAN DIPLOMATIK IMKONIYATLAR

2025-yil Markaziy Osiyo va xususan, O'zbekiston uchun xalqaro siyosiy maydonda muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Sababi, ilk bor Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi ushbu mintoqada, aniqrog'i, Toshkent shahrida bo'lib o'tadi. Bu O'zbekistonning xalqaro nufuzini yanada oshirishda va mintoqaning global siyosiy jarayonlarga integratsiyalashuviga muhim qadam hisoblanadi.

Mamlakatimiz Parlamentlararo Ittifoqqa 1992-yilda a'zo bo'lgan esa-da, tashkilot bilan faol hamkorlik 2017-yilda, ya'ni O'zbekiston o'z taraqqiyotida yangi bosqichga o'tgan vaqtda, izchil islohotlarni dadil boshlagan paytda qayta tiklandi. Natijada, o'tgan qisqa davr ichida milliy parlamentarizm va barqaror rivojlanish sohasida ulkan tajriba to'plandi. Yuritimizning qator sohalarda erishgan yutuqlari xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar tomonidan alohida e'tirof etilmog'ida.

Ayni chog'da assambleyaning Toshkentda o'tkazilishi o'zaro ishonch ramzi hamdir. Chunki bu O'zbekistonning xalqaro nufuzi ortib borayotganidan, mintoqadagi barqarorlik va islohotlarga oid pozitsiyasi e'tirof etilayotganidan dalolat beradi. Bu tanlov xalqaro hamjamiyatning mamlakatda amalga oshirilayotgan ochiqlik, demokratlashuv va parlament faoliyatini kuchaytirishga doir islohotlarni qo'llab-quvvatlayotganini ko'rsatadi.

Milliy parlamentimiz bu kabi yirik platformani qabul qilish orqali xalqaro miqyosdagi siyosiy subyektlar sifatida tan olindi. Bu mamlakatning tashqi siyosatdagi rolini mustahkamlaydi va yangi diplomatik imkoniyatlarni ochadi. Assambleya doirasida 180 dan ortiq mamlakatlar parlament delegatsiyalari Toshkentga tashrif buyuradi. Bu ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni mustahkamlash, qonunchilik yo'nalishida tajriba almashish va yangi tashabbuslar uchun maydon yaratadi.

Shu o'rinda aytish joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz orqali parlamentimiz palatalarining birgalikdagi hamda alohida vakollatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Parlamentlararo Ittifoqning asosiy

vazifalaridan biri ham aynan parlament demokratiyasini rivojlantirish sanaladi. Shu bois ushbu tashkilot bilan aloqalarning kengayishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohangdir. Qolaversa, assambleya doirasida O'zbekistondagi saylov tizimi, qonunchilik faoliyati, fuqarolarning ishtiroki kabi mavzular muhokama qilinishi va xalqaro standartlarga mos ravishda yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekistonning mazkur tadbirga mezbonlik qilishi mintoqaviy yetakchilikni mustahkamlashga ham hissa qo'shadi. Shu orqali Toshkent Markaziy Osiyoning diplomatik markazlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Assambleya nafaqat siyosiy, balki madaniy va inson huquqlari masalalarida ham muhim platformadir. Bu O'zbekistonning ushbu masalalardagi pozitsiyasini bayon etish va xalqaro tashabbuslarga qo'shilish imkonini beradi.

Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasining Toshkentda o'tkazilishi bu shunchaki xalqaro tadbir emas. O'zbekistonning yangi tashqi siyosiy imiji, parlament diplomatiyasidagi muvaffaqiyatlari va xalqaro hamjamiyatdagi nufuzi mustahkamlanishining amaliy ifodasidir. Bu kabi nufuzli tadbirning yuritimizda o'tkazilishi mamlakatimizning jahon siyosiy arenasida munosib o'rin egallash yo'lidagi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Shu bois tadbirning samarali va muvaffaqiyatli o'tishi har bir parlament a'zosisiga katta mas'uliyat yuklaydi.

**Gulnoraxon ABDUVOHIDOVA,**  
Oliy Majlis  
Qonunchilik palatasi deputati.

# KUCHLI DAVLATNI BILIMLI YOSHLAR QURADI



Keyingi yillarda davlatimiz rahbari boshchiligidagi xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to'liq ta'minlash, ularning qadr-qimmatini ulug'lash yangi O'zbekistonning davlat siyosatida yetakchi o'ringa chiqdi. Ayniqsa, ayollarning ta'lim olishi, ilm-fan bilan shug'ullanishi yo'lida qulay shart-sharoitlar yaratib berilayotgani tahsinga sazovor.

Bunday imkoniyatlar ko'lamidan nozik xilqat egalari ham motivatsiya olib, bor kuch va shijoatini ilgga baxshida etmoqda. Bugungi kunda 6,2 mingdan ziyod xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgani, ilmiy ishlanmalarining 25 foizi olim ayollarimiz tashabbusi ekanligi ham jamiyatda ularning o'rni mustahkamlanib borayotganidan dalolat. Ularning orasida xalqaro darajada e'tirof etilayotgan ilm-fan vakillarining borligi barchamizga faxr-iftixor bag'ishlaydi.



## Fikr

Academic Publishing" nashriyoti tomonidan nemis, ispan, italyan, fransuz, polyak, portugal, ingliz, rus tillarida chop qilindi.

Xalqaro Nordik universiteti tomonidan nashrga tavsiya etilgan ushbu kitobda mamlakatimizda olib borilayotgan valyuta siyosatini takomillashtirish asosida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari tahlil qilinib, bu borada amaliy takliflar ilgari surilgan.

Ta'kidlash joizki, valyuta siyosati tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning ta'sirchan vositasidir. Valyuta kursi mamlakat ichki va tashqi iqtisodiyot bilan o'zaro bog'liq bo'lib, uning o'zgarishi mamlakat iqtisodiyotiga va tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Valyuta kursi va uning kelgusidagi holati tashqi iqtisodiy munosabatlarni, ayniqsa, tashqi savdoni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan olganda, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflyatsiya 5-6 foiz darajadan oshmasligini ta'minlash vazifasi belgilab berilishining o'ziyoq tanlangan tadqiqot mavzusining nechog'li dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini

kuchaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmog'iga bozor mexanizmlarini izchillik bilan joriy etish, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini yuksaltirish, raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, davlat kompaniyalarini transformatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hozirgi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishini tashkil etadi.

Ayonki, rivojlanayotgan davlatlarda tashqi savdo aylanmasining ko'payib borayotgani, xorijiy investitsiyalar kelishining ortayotgani, ichki iqtisodiyotlarning jahon iqtisodiyotiga tobora integrallashayotgani hamda dollarlashuv darajasining keskin ko'tarilib borayotgani ichki iqtisodiyotlarning xalqaro valyuta bozorlaridagi tebranishlarga ta'sirchanligini oshirayotir. Ammo rivojlanayotgan davlatlarda valyuta siyosatining yetarlicha ravnaq topmaganligi va ayniqsa, ularda milliy valyutalarning devalvatsiyaga uchrashganini ko'rishimiz mumkin.

Aslida, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga erishish, aholining turmush farovonligini va milliy ishlab chiqarishning samaradorligini

Ishonchimiz komilki, yosh olim Muxlisa Norboyevaning tarmoqlarida faoliyat olib boruvchi mutaxassislar hamda qiziquvchilar uchun qo'llanma vazifasini o'taydi.

doimiy oshirib borish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay muhitni yaratish, valyuta kursi o'zgarishining eksport salohiyatiga ta'sirini ko'tarish kabi dolzarb muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish valyuta siyosatining samarali olib borilishiga bog'liq. Valyuta bozorini takomillashtirish mamlakat investitsiya salohiyatini yaxshilash, tijorat banklarida esa valyuta operatsiyalari samaradorligini oshirish, pirovardida bank-moliya tizimining rivojlanishiga olib keladi.

Shundan kelib chiqqan holda mazkur ilmiy monografiya ayni muammolarni tahlil qilish barobarida, ularga yechim berishi bilan ham ahamiyatlidir. Qolaversa, davlatimiz rahbarining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining barcha tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi, "Valyuta siyosatini liberalashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, tegishli qarorlar va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Bahodir HASANOV,**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining  
Audit kafedrasini professori,  
iqtisodiyot fanlari doktori.



## xabarlar

### Hamyurtlarimiz yilning eng kuchlilari safida

Xalqaro konkichilar ittifoqi (ISU) joriy mavsum yakuni bo'yicha kuchlilarni e'lon qildi.



Ahamiyatli, figurali uchish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Dmitriy Chigirev hamda Yekaterina Geynsh juftligi "Eng yaxshi debutant" nominatsiyasida g'olib bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, hamyurtlarimiz joriy mavsum ilk bor kattalar o'rtasidagi xalqaro turnirlarda ishtirok etdi. Shunday bo'lsa-da, ular "Xarbin - 2025" qishki Osiyo o'yinlarida oltin, Kanada Gran-prisida kumush medallarga sazovor bo'lishdi.

Qolaversa, Boston shahrida o'tgan jahon chempionatida kuchli o'nlikdan joy olib, "Milan-Kortina - 2026" qishki Olimpiya o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

### Suv polosi: O'zbekiston qizlar jamoasi Osiyoda uchinechi



Singapurda suv polosi bo'yicha "U-20" yosh toifasida Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Unda qit'aning sakkizta davlat terma jamoalari g'oliblik uchun kurashdi.

Mamlakatimiz yoshlar terma jamoasi "B" guruhida Xitoy Taypeyi, Singapur va Qozog'iston jamoalariga qarshi bahs olib borgan bo'lsa, "A" guruhida Eron, Malayziya, Xitoy va Shri-Lanka vakillari bellashdi.

Oltin davom etgan qizg'in bahslarda O'zbekiston erkaklar terma jamoasi 5-o'rin bilan kifoyalangan bo'lsa, qizlar jamoasi guruh bosqichini muvaffaqiyatli yakunlab, g'oliblik uchun kurashish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra O'zbekiston qizlar jamoasi bronza medaliga sazovor bo'ldi. Musobaqada Xitoy jamoasi chempionlikni qo'lga kiritgan bo'lsa, Qozog'iston vakillari kumush medal bilan taqdirlandi.

### "Olimpiada - 2036": da'vogarlar ko'p, ammo mezbonlik kimga nasib etadi?

2036-yilgi yozgi Olimpiya o'yinlari mezbonligi uchun bir necha davlat da'vogarlik qilmoqda.

Rasmiy manbalarning xabariga ko'ra Hindiston Dehli hamda Agra shaharlarini asosiy nomzod sifatida ko'rsatib, ularning infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratayotir. Shu bilan birga, Turkiya davlati ham Olimpiadani o'tkazish istagini bildirgan. Misr esa Qohira yaqinida maxsus Olimpiya shaharchasi qurishni rejalashtirmoqda.

Janubiy Koreya, Qatar, Germaniya, Meksika va Vengriya ham eng yirik sport anjumani mezbonligi uchun kurashyapti. Yakuniy qarorni Xalqaro Olimpiya qo'mitasi keyingi yil e'lon qilishi kutilmoqda.

### Yunon-rum kurashi: medallar bor, biroq bu yetarli emas



25 - 30-mart kunlari Iordaniyada sport kurashlari bo'yicha qit'a birinchiligi tashkil etildi. Musobaqaning so'nggi ikki kunida erkin kurash bahslari bo'lib o'tdi. Afsuski, bu galgi Osiyo chempionati ushbu yo'nalishdagi sportchilarimiz uchun omadsiz tugadi.

Shu tariqa, musobaqada yunon-rum kurashchilarimiz 3 ta oltin, 2 ta kumush va 1 ta bronza, qizlarimiz esa 1 ta bronza medaliga sazovor bo'ldi.

"Xalq so'zi".

## Kitob javoningizga

### IQTISODIYOTGA YO'L OCHGAN 40 YULDUZ

Xalqaro Nordik universitetining ilm-fan sohasidagi navbatdagi xayrli ishlaridan biri - "Iqtisodiyot ilmi osmonida yulduzga aylanganlar" nomli ikkinchi risola keng kitobxonlar ommasiga tuhfa etildi.

Risolada ilm-fan taraqqiyoti yo'lida muhim kashfiyotlarni amalga oshirgani uchun turli yillarda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan 40 nafar olimning hayoti va faoliyati, turli yillarda olingan intervyular jamlangan.

Sherzod Mustafoculov, Hasan Siborov, Nizomiddin O'rmonov va Muxtasar Isoqova ham muallifligida tayyorlangan risolada tanliq olimlarning jamiyatga qanday hissa qo'shganini, ilm-fan va taraqqiyot sari bosib o'tgan yo'llari batafsil bayon qilingan.

Kashfiyotlar, qonunlar va mexanizmlar haqidagi batafsil bilim darhol tatbiq etilmasligi mumkin. Ammo ular bilan tanishish dunyo ahliga koinotdagi o'rni anglashga, atrof-muhitdan xabardor bo'lishga yordam beradi. Shu ma'noda, kitobga kiritilgan mukofot sohiblarini insoniyatga, taraqqiyotga katta foyda keltirgan insonlar, deb atasak, mubolag'a bo'lmaydi. Ularning hayoti va ilmiy faoliyati bilan tanishish kitobxonlar uchun ulkan ilhom manbaidir.

Qayd etish joizki, ushbu risola nafaqat iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar, yosh tadqiqotchilar, pedagoglar, balki keng kitobxonlar ommasiga uchun muhim qo'llanma hisoblanadi.

"Xalq so'zi".

## JANUBIY KOREYADAGI VATANDOSHLAR HAM RAMAZON HAYITINI NISHONLADI

30-mart kuni dunyoning turli mamlakatlarida bo'lgani kabi Koreya Respublikasida ham Ramazon hayiti keng nishonlandi.

### Shukuh

Xususan, bu o'lkada vaqtincha ishlayotgan va ta'lim olayotgan vatandoshlarimiz ham ushbu bayramni ko'tarinki ruhda kutib oldi.

Bundan tashqari, muborak Ramazon oyi munosabati bilan Janubiy Koreyada bo'lib turgan vatandoshlarimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar o'tkazish maqsadida O'zbekiston musulmonlari idorasi rasmiy vakillari ushbu mamlakatda bo'ldi.

Yurtimiz elchixonasi tashabbusi bilan amalga oshirilgan ushbu tashrif doirasida imomlarimiz ishtirokida Janubiy Koreyadagi fuqarolarimiz zich

yashaydigan shaharlarda "Ramazon - 2025" ilmiy-ma'rifiy tadbirlari o'tkazildi.

Alohida ta'kid shuki yurtdoshlarimiz eng ko'p yashaydigan Mokpo, Tegu va Chonju kabi shaharlarda imomlarimiz bilan birgalikda Ramazon hayiti namozi o'qildi.

Ma'ruzalar davomida O'zbekiston Prezidentining xalqimizga Ramazon hayiti munosabati bilan yo'llagan tabrigining mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida so'zlab berildi.

Ayniqsa, mamlakatimiz rahbari tabrigidagi "Mana shu shukuhli ayyomda chet e'larda ona yurtga sadoqat tuyg'usi bilan yashayotgan vatandoshlarimizni ham Ramazon hayiti bilan chin dildan qutlab, ularga ezgu tilaklarimizni izhor

etamiz", degan fikrlar alohida urg'ulandi.

Hukumatimiz tomonidan xorijda istiqomat qilayotgan fuqarolarimizga qaratilayotgan e'tibor uchun vatandoshlarimiz minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, ular jonajon O'zbekistonimiz tinchligi va xalqimiz farovonligini so'rab duolar qildi.

Bu yil muborak Ramazon oyini Janubiy Koreyadagi muhojirlarimiz bilan birgalikda ko'tarinki ruhda o'tkazdik, - deydi Toshkent shahridagi "Yunus ota" masjidi imom xatibi Jamoliddin Qodirov. - Bir oy davomida Chonju shahrida istiqomat qilayotgan vatandoshlarga muqaddas islom dinining asl mohiyati, Ramazon oyi fazilatlarini, shukronalik hissi bilan yashash, berilgan ne'matlarning qadriga yetish, yurt ravnaqi, xalqimiz hamjihatligi va farovonligi yo'lida xizmat qilishning ahamiyati xususida ma'ruzalar o'qildi.

"Dunyo" AA.  
Seul

## O'zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120-yilligiga

### SHAXMAT ISHQIBOZLARI UCHUN ZAMONAVIY MAKTAB

Prezidentimiz tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, buning uchun zarur tuzilmalarni shakllantirish yo'nalishlarida keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Natijada mamlakatimiz sportchilari xalqaro musobaqalarda tarixiy yutuqlarga erishmoqda.

Mazkur yo'nalishlardagi ishlarga munosib hissa qo'shish maqsadida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ham turli sohalarida

mehnat qilayotgan xodimlar va ularning oila a'zolari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportning ommaviylikni kuchaytirish, bu orqali xodimlar

salomatligini mustahkamlash va mehnat jamoalarida sog'lom turmush tarzi barqarorligini ta'minlash borasida tizimli ishlarni amalga oshirib kelayotir. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasida "Shaxmat maktabi"ning ochilishi bu boradagi ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Yangi O'zbekistonda shaxmatni yanada rivojlantirish, mehnatkashlar, jumladan, yoshlar o'rtasida bu sport turini ommaviy harakatga aylantirish ishlariga munosib hissa qo'shish maqsadida tashkil etilgan mazkur maktabning ochilish marosimida sohaga taalluqli idoralar mutasaddilari, shaxmat ustalari, jamoatchilik vakillari va talaba-yoshlar qatnashdi.

Aytilganidek, mamlakatimiz kasaba uyushmalari harakatining

120-yilligi oldidan amalga oshirilgan ushbu xayrli loyiha natijasida shaxmat ishqibozlari mazkur maktabda "aql gimnastikasi" sirlarini bepul o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Zero, bu muassasa, aholi, ayniqsa, o'quvchi-yoshlar o'rtasida shaxmatni keng targ'ib etish bilan birga, yigit-qizlar orasidan "aql gimnastikasi"ga qiziquvchi yosh iqtidorlarni aniqlab, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish, bu orqali kuchli shaxmatchilar yetishib chiqishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi yurtimizda sportning ushbu turini ommalashtirish bo'yicha yana bir qator xayrli loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirgan. Xususan, mehnat jamoalarida shaxmat klublarini tashkil etish, korxonalar, tashkilot va muassasalar xodimlari o'rtasida har yili shaxmat bo'yicha turli musobaqalar o'tkazish ko'lamini yanada kengaytirish ko'zda tutilgan.

Rahim SHERQULOV  
("Xalq so'zi").



Ostona shahrida 10 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida futbol bo'yicha "Astana cup - 2025" turnirida Toshkentning "Paxtakor" jamoasi 2-o'rinni egalladi.

## Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G 442, 13 374 nusxada bosildi. Hajmi - 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxonza 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va ummulligga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obxamani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahriyot kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmurotov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxonaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.  
Musahhib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaxona manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 02.15 Topshirildi - 03.30 1 2 3 4 5 6